

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.01.2020.Ped.26.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

XASANOVA MAXMUDA TIXTAYEVNA

**BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINFI O‘QITUVCHILARINING IJTIMOIIY
KOMPETENTSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI
TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философских наук
(PhD) по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstracts of doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Xasanova Maxmuda Tixtayevna

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijtimoiy kompetentsiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish 3

Xasanova Maxmuda Tixtayevna

Совершенствование методик развития социальных компетенций будущих учителей начальных классов 23

Khasanova Makhmuda Tikhtayevna

Improving the methodology for the development of social competencies of future primary school teachers 45

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Spisok opublikovannix rabot

List of published works 49

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.01.2020.Ped.26.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

XASANOVA MAXMUDA TIXTAYEVNA

**BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINFLAR O‘QITUVCHILARINING IJTIMOIY
KOMPETENTSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI
TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.1. PhD /Ped2781 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Toshkent davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tersu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Abrorxonova Kamola Abrorxon qizi
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori,(PhD)

Rasmiy opponentlar:

Shodieva Matluba Jo‘raevna
pedagogika fanlari doktori

Xaydarova Mahliyo Xabibullaevna
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot:

Farg‘ona davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD. __/__. ____. Ped. __. __. __. raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil «__» __ soat __ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100011, Toshkent shahri, Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy.) Tel:(99871) 276-79-11; faks(99871) 276-80-86; web-site: www.tdpu.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat pedagogika universiteti Axborot - resurs markazida tanishish mumkin. (__ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100011, Toshkent shahri, Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy. Tel:(99871) 276-79-11; faks(99871) 276-80-86

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «__» _____ kuni tarqatildi.
(2025-yil «__» _____ dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

N.A.Muslimov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
Kengash raisi, p.f.d., professor

R.G.Isyanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
Kengash kotibi, p.f.n., dotsent

Z.N.Mamarajabova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, p.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarning ijtimoiy madaniy ma'rifiy tayanch kompetentsiyalarini rivojlantirishning kreativ modellari amaliyotga tatbiq etilmoqda. Yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish o'quvchi-yoshlarda mustaqillik, ijodiy tashabbuskorlik va ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantirishning yangi pedagogik texnologiyalarini yaratish, takomillashtirish, huquqiy va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan amaliy loyihalarni tatbiq etishga doir tizimli ishlar olib borilmoqda.

Jahon ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida shaxsning ijtimoiy kompetentsiyalarini rivojlantirish yoshlarning tafakkurini, ongini mafkuraviy immunitetini demokratik jamiyatda o'quvchilarni shakllantirish, shaxs e'tiqodi, fikr, tasavvurlari, bilimlari majmuasini faollashtirishga doir ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shuningdek, o'quvchi-yoshlar ijtimoiy faolligiga qo'yilayotgan zamonaviy talablar bilan ularning bilim, ko'nikma va malakalari, mavjud ijtimoiy faollik kompetentsiyalari o'rtasidagi nomutanosiblik jamiyat taraqqiyoti ehtiyojlariga moslashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda so'ngi yillarda izchil islohotlar natijasida yurt istiqboli uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir, tashabbuskor, shijoatli yoshlarni tarbiyalash bilan bir qatorda umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchi-yoshlar tashabbuslarini to'g'ri yo'naltirgan holda, ularning ijtimoiy faolligini oshirish jarayoni ko'lamini kengaytirishning me'yoriy asoslari yaratilmoqda "Jismonan sog'lom, ruhiy va intellektual rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, hayotiy nuqtai nazarga ega, Vatanga sodiq yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish"¹ vazifa etib belgilangan. Bu bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy sifatlarini takomillashtirishning kelajak imkoniyatlarini kengaytiradi.

O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda qabul qilingan O'RQ-637-son "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022–2026 yillarga mo'ljallangan. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi, 2020 yil 6 noyabrdagi PF-6108-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-son "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 6 iyuldagi 422-son "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Tarbiya" fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2019 yil 31 dekabrdagi 1059-son "Uzluksiz ma'naviy tarbiya Kontsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur sohaga taalluqli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar Strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2017 yil, 6-son, 70-modda.

darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining 1.“Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarda ijtimoiy kompetentsiyalarini rivojlantirishning pedagogik – metodik jihatlari B.S.Abdullaeva, A.R.Aripjanova, I.M.Rasulov, A.A.Xaliqov, M.I.Toshpulatova, R.X.Ibragimova, M.E.Jumaev, U.A.Masharipova, A.X.Maxmudov, A.A.Akramov, G.A.Asilova, K.D.Riskulovalar tomonidan tadqiq etilgan.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarda ijtimoiy kompetentsiyalarini rivojlantirishning nazariy-metodik jihatlari T.V.Semenova, M.V.Xramova, A.F.Polyakov, K.V.Ivanov, L.R.Fazleeva, N.S.Romanova, R.S.Zayagintsev, Sh.Sh.Mirziyoeva, N.A.Drozdov, N.V.Tixonovalar tomonidan tadqiq etilgan.

Xorijiy mamlakatlarda ijtimoiy kompetentsiyalarini rivojlantirish masalalari olimlar Dj.Dyui, R.Dall, Dj.Patrik, M.Branson, Ch.Quigley, P.White, R.Moore, A.Sears, A.Hughes, Hutmacher Walolar tomonidan tadqiq etilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy tadqiqot rejasining "Pedagogik yo‘nalishlar va mutaxassisliklar bo‘yicha ilg‘or pedagogika texnologiyalarini joriy etish, pedagog kadrlarni sifatli tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, elektron-ta‘lim resurslarini yaratish va takomillashtirish, o‘quv jarayoniga zamonaviy pedagogika, multimedia va axborot-kommunikasiya texnologiyalarini joriy etish" nomli ustuvor yo‘nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi bo‘lajak boshlangich sinf o‘qituvchilarining ijtimoiy kompetentsiyalarini rivojlantirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining ijtimoiy kompetensiyasini oshirishga yo‘naltirilgan nazariy va amaliy yondashuvlarning pedagogik imkoniyatlarini tahlil etish;

bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining ijtimoiy kompetensiyasini oshirish metodikasini takomillashtirish;

bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining ijtimoiy kompetentsiyalarini rivojlantirish modelini takomillashtirish;

bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining ijtimoiy kompetensiyasi darajasini aniqlash mezonlarini takomillashtirish;

Tadqiqotning obekti sifatida bo‘lajak boshlangich sinf o‘qituvchilarining ijtimoiy kompetentsiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish jarayoni belgilanib, Toshkent davlat pedagogika universiteti, Farg‘ona davlat pedagogika

universiteti, Guliston davlat universitetining 294 nafar talabarlari ishtirok etgan.

Tadqiqotning predmeti bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijtimoiy kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish mazmuni shakl, metod, usul va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari: Tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatuv, nazariy (o'quv metodik adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish, qiyoslash-taqqoslash, analogiya), diagnostik (so'rovnoma, test o'tkazish, kuzatish), prognostik (ta'limni baholash, ekspert baholash, mustaqil baholarni umumlashtirish, modellashtirish) metodlar majmui, pedagogik tajriba-sinov, natijalarni matematik va statistik tahlil etish kabi usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijtimoiy kompetensiyasini oshirishning pedagogik imkoniyatlari didaktik jarayon davomida o'zini-o'zi nazorat qilish, ijtimoiy ahamiyatli va vaziyatlarni egallash, ta'limiy maqsadlarga mos muammoli vaziyatlarni tashkil etish hamda sinergetik, fenomenologik va aksiologik yondashuvlarning integrativ xususiyatlarini tashkiliy jihatdan yaxlitlash asosida aniqlashtirilgan;

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ijtimoiy kompetensiyasini oshirish modeli kommunikativ mobilni oshirishga yo'naltirilgan axborotlar bilan ishlash izchilligiga erishish, o'z – o'zini rivojlantirishga yordam berish, milliy va umummadaniy tayanch bilimlarini hamda motivga ega qobiliyatini innovatsion ta'lim muhitiga bosqichma-bosqich uyg'unlashtirish asosida takomillashtirilgan;

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ijtimoiy kompetensiyasini oshirish jarayoni ma'naviy tarbiyalanganlik va demokratik qadriyatlar, insonparvarlik, axloqiy sifatlarni didaktik maqsadlarga mos uyg'unlashtirish hamda instrumental-motivatsion, kognitiv-produktiv, reflektiv-baholovchi komponentlar mazmunini subekt-subekt munosabatlar faolligiga proporsionalligini faktik tasniflash asosida takomillashtirilgan;

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ijtimoiy faolligini oshirish metodikasi empatiya va intellekt darajasini kengaytirish ta'lim subektlari faoliyatidagi muammoli vaziyatlarni konstruktiv hal qilishga o'rgatish hamda demokratiya, so'z erkinligi, adolat, qonunlarni hurmat qilishga yo'naltirish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

oliy ta'lim muassasalari talabalarida ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishning o'quv-uslubiy ta'minoti yaratilgan;

ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishning innovatsion ta'lim mashg'ulotlari majmui ishlab chiqilgan;

ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan;

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish, jumladan, amaliy yunaltirilgan va tajriba-sinov uchun tanlangan innovatsion texnologiyalari tavsiya etilgan.

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ijtimoiy faolligini oshirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonning modeli hamda ijtimoiy kompetensiyalarini

rivojlantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llangan yondashuv va usullar ilmiy-metodik jihatdan asoslangani, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish hamda pedagogik ta'lim sohasida respublikamiz va chet ellik olimlar ishlariga tayanilgani, nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olingani, tadqiqot vazifalariga mos keluvchi, o'zaro bir-birini to'ldirib boruvchi tadqiqot metodlari qo'llangani keltirilgan tahlillar, tajriba-sinov ishlari samaradorligi matematik statistika metodlari yordamida asoslangani, xulosa va takliflarning amaliyotga joriy etilgani hamda vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati oliy ta'lim muassasalari talabalarida ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishga yondashuvlar ilmiy-nazariy jihatdan boyitilgani; bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish, ijtimoiy-siyosiy hamda pedagogik bilim, ko'nikma, malaka va qobiliyatlarni rivojlantirishning innovatsion-interaktiv ta'lim texnologiyalari, mazmun-mohiyati, asosiy tushunchalari, baholash mezonlari takomillashtirilgani, daraja kursatkichlari ishlab chiqilgani, ijtimoiy-ma'naviy va kompetensiyalarini rivojlantirishning strategik maqsadlarini rivojlantirishdagi roli yoritib berilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari, ijtimoiy faollikni rivojlantirish bosqichlari, ta'limiy komponentlari, ijtimoiy-madaniy, ijtimoiy faollikni rivojlantirishning ta'limiy imkoniyatlari va ularni ta'lim tizimiga tatbiq etishga doir taklif hamda tavsiyalardan oliy ta'lim muassasalarida o'quv dasturlari, darslik va o'quv qullanmalarini ishlab chiqish, OTM va malaka oshirish tizimida ma'ruzalar o'qishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish bo'yicha olingan natijalar asosida:

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijtimoiy kompetensiyasini oshirishning pedagogik imkoniyatlari didaktik jarayon davomida o'zini-o'zi nazorat qilish, ijtimoiy ahamiyatli va vaziyatlarni egallash, ta'limiy maqsadlarga mos muammoli vaziyatlarni tashkil etish hamda sinergetik, fenomenologik va aksiologik yondashuvlarning integrativ xususiyatlarini tashkiliy jihatdan yaxlitlash asosida aniqlashtirishga oid takliflar "Tarbiyaviy ishlar metodikasi" o'quv qo'llanmasi mazmuniga singdirilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2024-yil 28-dekabrda 11-05-7556/04 raqamli dalolatnomasi). Natijada, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonining mohiyati va pedagogik-psixologik xususiyatlarini aniqlash imkoniyati oshirilgan;

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ijtimoiy kompetensiyasini oshirish modeli kommunikativ mobillikni oshirishga yo'naltirilgan axborotlar bilan ishlash izchilligiga erishish, o'z – o'zini rivojlantirishga yordam berish, milliy va umummadaniy tayanch bilimlarini hamda motivga ega qobiliyatini innovatsion ta'lim

muhitiga bosqichma-bosqich uyg'unlashtirish asosida takomillashtirishga oid takliflar "Tarbiyaviy ishlar metodikasi" o'quv qo'llanmasi mazmuniga singdirilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2024-yil 28-dekabrda 11-05-7556/04 raqamli dalolatnomasi). Natijada, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini belgilash asosida ularda ijtimoiy kompetensiyalar rivojlanganligini baholash mezonlari aniqlashtirilgan;

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ijtimoiy kompetensiyasini oshirish jarayoni ma'naviy tarbiyalanganlik va demokratik qadriyatlar, insonparvarlik, axloqiy sifatlarni didaktik maqsadlarga mos uyg'unlashtirish hamda instrumental-motivatsion, kognitiv-produktiv, reflektiv-baholovchi komponentlar mazmunini subekt-subekt munosabatlar faolligiga proporsionalligini faktik tasniflash asosida takomillashtirishga oid tavsiyalar "Tarbiyaviy ishlar metodikasi" o'quv qo'llanmasi mazmuniga singdirilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2024-yil 28-dekabrda 11-05-7556/04 raqamli dalolatnomasi). Natijada, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirish imkoniyati oshirilgan;

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ijtimoiy faolligini oshirish metodikasi empatiya va intellekt darajasini kengaytirish ta'lim subektlari faoliyatidagi muammoli vaziyatlarni konstruktiv hal qilishga o'rgatish hamda demokratiya, so'z erkinligi, adolat, qonunlarni hurmat qilishga yo'naltirish asosida takomillashtirishga oid takliflar "Tarbiyaviy ishlar metodikasi" o'quv qo'llanmasi mazmuniga singdirilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2024-yil 28-dekabrda 11-05-7556/04 raqamli dalolatnomasi). Natijada, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirishning didaktik mazmuni boyitilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Ushbu tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta mahalliy konferentsiyada muhokama qilindi.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 11 ta ilmiy ish, jurnaldan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, shundan, 3 ta respublika, 1 ta xorijiy, jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 3 bob, xulosa, tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 145 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'ekti va predmeti, tadqiqot ishining fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, erishilgan natijalarning amaliyotga joriy etilishi, ilmiy nashrlarda e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi borasidagi ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning ilmiy-nazariy asoslari**” deb nomlanib, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik mazmuni, kontseptual asoslari, pedagogik shart-sharoitlari, ta‘lim tizimi sohasidagi sifat o‘zgarishlari, yuqori samaradorlik ularning jahon ta‘lim talablari bilan mosligi hamda pedagoglarning kelgusi mehnat faoliyatlarida o‘zlashtirgan kompetensiyalari qay darajada amaliyotga tatbiq jarayonlari tahlil etilgan.

Bugungi kunda ta‘lim tizimidagi islohotlarning muammolari pedagog kadrlar salohiyati bilan bog‘liq. O‘rganish va tahlillar zamonaviy pedagogning kasbiy kompetentligi tezkor rivojlanayotgan ta‘lim jarayonlarining talablaridan orqada qolayotganini ko‘rsatmoqda. Bu holat pedagogik ta‘limni rivojlantirish va uzluksiz ta‘lim jarayonida pedagoglarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni yaxshilash bilan bog‘liq muammolarning dolzarbligini ko‘rsatadi. Ushbu muammolarning jiddiyligi, shubhasiz, muntazam o‘tkazilayotgan monitoring jarayonlarida ta‘lim tizimining tezkor yangilanishi natijasida yuz berayotgan o‘zgarishlarga javob berish va ularga etarlicha tayyor bo‘lmagan pedagog kadrlar mavjudligi, ta‘limga, shaxsga, xususan, o‘qituvchi-murabbiylar faoliyatiga bo‘lgan zamonaviy ijtimoiy talablar hamda bu talablarga etarli darajada javob bermaydigan pedagog kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimining holati aks etmoqda. Belgilab berilgan vazifalarni amalga oshirish uzluksiz pedagogik ta‘limga bo‘lgan konseptual qarashlar tizimini rivojlantirishni, pedagog kadrlar kasbiy-shaxsiy rivojlanishining psixologik-pedagogik shart-sharoitlarini aniqlashni talab qiladi.

Xorijiy mamlakatlarda olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda “kompetensiya” kategoriyasi kiritilganidan boshlab, kompetentlik va kompetensiya tushunchalarini ajratish ustida asoslar yaratildi. Mashhur britaniyalik psixolog Dj. Raven nomi bilan bog‘laydilar, u o‘zining “Zamonaviy jamiyatda kompetentlik” nomli ishida kompetentlik va kompetensiya tushunchalarining pedagogik-psixologik jihatlariga to‘xtalib o‘tgan. Mazkur tushuncha “ko‘p sonli komponentlardan tashkil topgan bo‘lib, ulardan ko‘pchiligi bir-biriga nisbatan mustaqil, ayrim komponentlar ko‘proq kognitiv sohaga, boshqalari esa – emotsional sohaga taalluqli, mazkur komponentlar samarali xulqni tashkil qiluvchilar sifatida bir-birini to‘ldirishi mumkin” deb ta‘kidlagan. Ushbu tushunchaga Dj. Raven “kompetentlik ko‘rinishlari”, “motivga ega qobiliyatlarning” mohiyati deb ta‘kidlaydi. Shu tariqa, Dj. Raven tomonidan kompetentligining psixologik nazariyasi yaratilgan bo‘lib, unga ko‘ra kompetentlik biologik irsiyatga, qobiliyatlar va boshqa individual xususiyatlarga bog‘liq bo‘lgan inson psixikasining mahsuli hisoblanadi, uning rivojlanishi esa yashash muhitiga bog‘liqdir (maktablar, oilalar, ishchi jamoa, do‘stlar va h.k.) deb ta‘kidlab o‘tgan. Dj. Raven kompetensiyaning mazmun-mohiyatini tadqiq etar ekan, “motivatsiya”, “maqsadni belgilash”, “xulq” tushunchalariga tayanadi va ular o‘z navbatida inson qadri, uning axloqiy majburiyatlariga bog‘liq bo‘ladi. U kompetensiyalarning 37 ko‘rinishini ajratib ko‘rsatgan bo‘lib, ular samarali xulqning tashkiliy elementlari hisoblanadi

MDX olimlardan B.Gershunskiy kompetensiya tushunchasini inson faoliyatining

kasbiy sohasiga nisbatan o'rgangan bo'lib, u "kasbiy ta'lim darajasi, insonning tajribasi va individual xususiyatlari, uning uzluksiz mustaqil ta'limga motivli intilishi va o'z-o'zini takomillashtirishi, ishga ijodiy va mas'uliyatli munosabati" bilan belgilanadi. U kompetensiyani savodxonlik, ma'lumotlilik, kompetensiya, madaniyat va mentalitetdan tashkil topgan ta'lim samaradorligining strukturaviy bo'g'inini tashkil etuvchilaridan biri sifatida qaragan. I.Frumin kompetensiyani ma'lumotlar va malakalarning oddiy kombinatsiyasi sifatida qaralmaydigan va haqiqiy masalalarni hal etishga yo'naltirilgan ta'limiy natijaning yangi turi sifatida talqin qilgan. Ta'lim tizimida kompetentsiyaviy yondashuvni amalga oshirishning yo'nalishlarini u asosiy kompetensiyalar, umumlashgan predmetli ko'nikmalar, amaliy predmetli ko'nikmalar va hayotiy malakalar deb atagan va ular orasida eng muhimi asosiy kompetensiyalar g'oyasi hisoblanadi deb ta'kidlagan. Kompetensiya tushunchasini L.Davidov bir aniq (kasbiy) vazifani bajarishni ta'minlovchi o'zaro aloqador va o'zaro bog'liq bilim, ko'nikma va malakalar guruhi sifatida qaraydi. I.A.Delgas o'z tadqiqotida kompetensiyani "shaxsiy o'z-o'zini amalga oshirishga ko'maklashuvchi bilim, ko'nikma, ma'lumotlilikning mavjudligi, olamda o'z o'rnini topish usuli bo'lib, uning oqibatida ta'lim yuqori motivatsiyali va shaxsiy imkoniyatlarning maksimal talab etilganligini ta'minlovchi sifatida namoyon bo'ladi, atrofdagilar tomonidan shaxsni tan olish va uning o'z ahamiyatligini anglashi" sifatida ta'riflaydi.

O.A.Qo'ysinov o'z ilmiy tadqiqot ishida kompetentlikni bilimlarga yoki ko'nikma va malakalarga qarama-qarshi qo'yish ham mumkin emas. "Kompetentlik tushunchasi bilim, ko'nikma yoki malaka tushunchalariga nisbatan kengroq, kompetentlik ularni ta'lim natijasi sifatida o'z ichiga oladi (lekin bunda kompetentlik bilim, ko'nikma va malakalarning oddiy yig'indisi emas, birmuncha boshqacharoq mazmundagi tushunchadir)". Kompetentlik tushunchasi nafaqat kognitiv va operatsion-texnologik, balki motivatsion, axloqiy, ijtimoiy tarkibiy qismlarni ham o'z ichiga oladi deb ta'kidlagan. G.Asilova o'z tadqiqotida "kompetentli yondashuvga asoslangan ta'lim oluvchilar tomonidan egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatda amalda qo'llay olish kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'limdir" deb takidlagan. B.X.Xodjaev "kompetentli yondashuv doirasida ta'limning uchta ananaviy elementi bo'lgan bilim, ko'nikma va malakaga yana uchta unsurlar: amaliy faoliyat tajribasi, kompetensiya, kompetentlik" ning ilgari surilishi haqida to'xtalib o'tgan.

Tadqiqot muammosiga oid tahlillar shundan dalolat beradiki, talabalarda tashabbuskorlik, ijtimoiy faollikni rivojlantirish muammolari bo'yicha respublikamiz olimlari X.M.Tojiboeva, N.N.Djamilova, Q.Q.Quronboev, B.Sh.Shermuhammadov, G.J.Tulenovalar yoshlarda ijtimoiy faollikni rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslariga to'xtalib o'tgan. Ta'limni insonparvarlashtirish (Kaykovus, A.Avloniy, E.Yusupov, O.Musurmonova, N.M.Egamberdieva, A.Begmatov, A.D.Aliyarov, Ye.V.Bondarevskaya, I.A.Zimnyaya, M.S.Kagan, V.D.Shadrikov va b.q.); zo'ravonlik qilmaslik va tolerantlik (Xusayn Voiz Koshfiy, M.Mamajonov, J.G'.Yuldoshev, S.Xasanov, N.D.Qosimova, Yu.M.Orlova); shaxs shakllanishi, moslashuvchanlikning va o'z-o'zini aktuallashtirishning muayyan darajasiga erishish (G'.B.Shoumarov, E.G.G'oziev, S.N.Jo'raeva, Z.T.Solieva, S.Abulxanova va b.q.).

X.M.Tojiboeva ilmiy tadqiqot ishida ijtimoiy faollik – shaxsning maqsadga yo‘naltirilgan faoliyati bo‘lib, ijtimoiy voqelikka nisbatan individual munosabati va tizimli xatti-harakatlarining yuksak ko‘rinishini ifodalovchi tushuncha sifatida talqin etgan. N.N.Djamilova “tashabbuskorlik o‘quv va kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishish uchun yangi g‘oya va takliflarni ilgari surish hamda amaliy faoliyatda namoyon etishga qodirlik” deb ifodalagan.

Pedagogika izohli-lug‘atida kompetensiyani – u yoki bu soha bo‘yicha bilimdonlik. Kompetensiyani shakllantiruvchi o‘qituvchi pedagogik faoliyati, pedagogik muloqoti va muayyan qadriyatlar, ideallar hamda pedagogik ong tushunchasi sifatida shaxsning shakllanganligini belgilovchi, bilim, ko‘nikma va malakalarning zarur yig‘indisini egallashning asosiy omili sifatida qarash mumkin.

Kompetensiya – bu faoliyat subektining bilim va vaziyat o‘rtasidagi aloqalarni o‘rnatish imkoniyati yoki yanada kengroq ma‘noda, ma‘lum vaziyatdagi muammoni hal etish uchun zarur bo‘lgan amallar, jarayonining (bilim + harakat) yo‘naltiruvchi asosini topish, aniqlash qobiliyatidir.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijtimoiy kompetensiyalarini takomillashtirish demokratik qadriyatlar va shaxsning alohida sifatlarini shakllantirish uchun xorijiy pedagoglar tomonidan ko‘pgina darsdan tashqari amaliyotlardan foydalanib ko‘rsatilgan: yosh avlod tarbiyasida demokratik institutlarning roli muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda o‘quvchilarning xotiralari muhim kontseptual asos bo‘lib xizmat qiladi. Xotiraning ikkala shakli – ixtiyoriy va ixtiyorsiz – boshlang‘ich maktab yoshida shunday sifatli o‘zgarishlarga uchraydi, buning natijasida ularning yaqin aloqalari va o‘zaro o‘tishlari yo‘lga qo‘yiladi. Xotiraning har bir shaklidan bolalar tegishli sharoitlarda foydalanishi juda muhim (masalan, matnni yodlashda asosan ixtiyoriy xotira ishlatiladi). Bilish faollik tufayli barcha xotira jarayonlari jadal rivojlanadi: ma‘lumotlarni yodlash, saqlash, ko‘paytirish. Shuningdek, xotiraning barcha turlari: uzoq muddatli, qisqa muddatli, operatsion. Xotiraning rivojlanishi o‘quv materialini yodlash zarurati bilan bog‘liq. Shunga ko‘ra, ixtiyoriy yodlash faol shakllanadi. Bu nafaqat nimani eslash, balki qanday eslab qolish muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

Kontseptual fikrlash va aqliy operatsiyalarning elementlari shakllantiriladi – nazariy tarkibni tegishli ravishda qayta ishlash uchun zarur bo‘lgan tahlil, sintez, taqqoslash, guruhlash, tasniflash, mavhumlashtirish (bilish, idrok, kashfiyot, o‘ylash, tahlil, sintez, taqqoslash, umumlashtirish, konkretlash, xayol, diqqat) kabi muammolar tahlil qilindi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijtimoiy kompetentligini takomillashtirish jarayonida mutaxassislikka oid bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirib borishi bilan bir qatorda pedagogik-psixologik fanlar bo‘yicha nazariy va amaliy bilimdonlikning shakllanishi mavjud pedagogik shart-sharoitlarni umumiylikda biz individual xususiyatlar darajalari sifatida ifodaladik va uni rivojlantirish ko‘rinishida aniqlashtirdik: (diagnostik, maqsadli, mazmunli, jarayonli va tahliliy) statistika orqali ijtimoiy kompetensiyasi rivojlanishining uchta daraja mezonining: zaruriy (ijtimoiy yo‘nalish darajasi), optimal (ishonch darajasi) va maksimal (ijtimoiy hatti-harakat darajasi) tavsifidan iborat bo‘lgan darajali sifatleri aniqlandi.

Ikkinchi bob **“Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijtimoiy kompetentsiyalarini takomillashtirish metodikasi”**da bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijtimoiy kompetentsiyalarini rivojlantirish didaktik asoslari, ijtimoiy kompetentsiyalarini takomillashtirish texnologiyalar tahlil etilgan bo‘lib, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijtimoiy kompetentsiyasini rivojlantirish modeli takomillashtirilgan.

Dissertatsiyada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijtimoiy kompetentsiyalarini takomillashtirish ta’lim-tarbiya – jamiyat a’zolari madaniyati va ongiga huquqiy bilimlarni turli ta’sir vosita va yondashuvlar asosida uzluksiz singdirib borish yo‘llari asoslandi. Jumladan, boshlang‘ich ta’lim va ta’lim-tarbiyaning sifati va samaradorligini ta’minlashda OAV, radio, TV, boshlang‘ich mavzulardagi kechalar, davra suhbatlari ham muhim ahamiyatga ega bo‘lsa, boshlang‘ich madaniyat – shaxs tomonidan huquqiy bilimlarning o‘zlashtirilishi hamda huquqiy faoliyatni tashkil etish darajasining sifat ko‘rsatkichida – ijtimoiy, kognitiv, axborot-semiotik va faoliyat yondashuvlari maxsus usul sifatida ko‘rib chiqildi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijtimoiy kompetentsiyalarini takomillashtirish jarayonida elektron didaktik vositalarni qo‘llash bo‘yicha uslubiy tizim beshta o‘zaro bog‘liq komponentdan iborat: maqsad, o‘qituvchi, o‘quvchilar, mazmun, vosita, ona tili bo‘yicha yozma va og‘zaki nutq madaniyatini shakllantirishning tashkiliy-pedagogik shartlari ta’lim jarayonini tashkil qilishda elektron didaktik vositalarni qo‘llash samaradorligini ta’minlovchi muhim omil hisoblandi.

Boshlang‘ich ta’limda pedagogik shart-sharoitlarni aniqlashtirgan holda, quyidagi asosiy komponentlarni ajratish imkoniyati yaratildi: maqsadli komponent ortidan “O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi: mazmunining imkoniyatlaridan foydalanishni, ijtimoiy kompetentsiyasining erishilgan darajasining tashhisini o‘tkazish, ijtimoiy sifatlarini rivojlantirish orqali darsni loyihalash, ijtimoiy loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish bo‘yicha o‘quv topshiriqlarida “Menga so‘z bering”, “Loyiha” metodlari, “Skarabey” texnologiyalaridan foydalanish ta’lim muassasasining demokratik hayot tarzini qurishda, talabalarga o‘z qiziqishlari va qobiliyatlarini o‘quv-tarbiyaviy hamda o‘z faoliyatida amalga oshirish imkoniyatini rivojlantirishdan iborat.

“O‘quvchi – o‘qituvchi” hamkorligi og‘zaki hikoya va yozma matn tuzishga o‘rgatish jarayonida o‘qituvchi bilan alohida olingan o‘quvchi o‘rtasida o‘zaro yaqin hamkorlik bo‘lishini taqozo etadi. Biz o‘qituvchi rolini ta’limning har bir bosqichida integrator va fasilitator sifatida belgilaymiz. Bizning tushunchamizda integrator-o‘qituvchi vazifasi nutq madaniyatini shakllantirish asosida yotuvchi barcha komponentlarning muvaffaqiyatli integratsiyasini ta’minlashdan iborat. Fasilitator-o‘qituvchi, bizning metodik tizimga tatbiqan, maktab o‘quvchilarining o‘zaro va o‘qituvchi bilan guruhli hamda shaxslararo muloqoti muvaffaqiyatli kechishini ta’minlash vazifasini bajaradi.

Metodik tizimga muvofiq, ona tilida nutq madaniyatini shakllantirish mazmun-mundarijasida lingvistik, pragmatik, ijtimoiy-lingvistik, ijtimoiy-madaniy komponentlar taqdim etilgan.

Metodikaning pragmatik komponenti o‘quvchilar fikrlarni muloqot maqsadiga

erishadigan tarzda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijtimoiy kompetensiyalarini takomillashtirishga yo'naltirilgan. Ishlab chiqilgan metodika maktab o'quvchilari tomonidan elektron matnlar, SMS xatlar ham olingan topshiriqlarga qat'iy mutanosiblikda yozilishini nazarda tutadi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijtimoiy kompetensiyalarini takomillashtirish komponent o'quvchilarda vaziyatga bog'liq ravishda kerakli lingvistik shakl va ifoda uslubini tanlash, vaziyatlar, muloqot maqsadlari hamda so'zlovchining niyatlariga bog'liq ravishda ifoda shakli, uslubini tanlash ko'nikmalarini rivojlantirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Maktab o'quvchilari o'z fikrlarini og'zaki va yozma bayon etishda mutanosib nutq qoliplari, grammatik tuzilmalar va lug'aviy vositalarni tanlagan holda zaruriy muloqot registrini (shaxsiy/ish yuzasidan) to'g'ri belgilashi va foydalanishi lozim.

O'zaro munosabatlarni yaxshilashga yordam beradigan asosiy usul "hissiy munosabat" (ism-sharif, mehribonlik, mehr-oqibat ohangida va boshqalar) deb ataladi. Bunday toifadagi yosh maktab o'quvchilari bilan ishlashda o'qituvchi ishda zudlik bilan ishtirok etishni kutmasligi, ularga bir xil faoliyat turidan ikkinchisiga tezda o'tishni talab qiladigan o'quv topshiriqlarini bermasligi kerak. Javob haqida o'ylash uchun vaqt bering, chunki ular uchun improvizatsiya qiyin. Savol berib javob berayotganda gapingizni to'xtatmang. Tanaffusdan keyin bu bolalar intetsiv jismoniy ishdan aqliy faoliyatga juda sekin o'tishlarini biling.

Bugungi kun ta'lim va tarbiya jarayoni o'sib kelayotgan yosh avlodni jamiyat talablarini o'zida aks ettiruvchi ijtimoiy buyurtma asosida hayotga tayyorlashdan iborat. Ta'lim va tarbiya jarayonida yoshlar ajdodlar tomonidan to'plangan bilim, odob, urf-odat, madaniyat va mehnat ko'nikmalarini o'zlashtirishi, hayotiy tajriba asosida jamiyatda o'zining munosib o'rnini egallashi, salohiyati va dunyoqarashining shakllanishida pedagog shaxsi, uning kasbiy mahorati muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, yoshlarda davr talabidan kelib chiquvchi yangi masala va muammolarni echish uchun zarur bo'ladigan sifatlarni shakllantirish pedagogik faoliyat sohasining ustuvor vazifasi hisoblanadi.

Bizningcha, bunda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini quyidagilar bo'yicha kasbiy malakasini shakllantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

o'quvchilarning individual layoqati, xohish-istagi va qiziqishlarini aniqlab olish; ta'lim va tarbiya jarayonini hayot va ijtimoiy faoliyat bilan uyg'unlikda tashkil etish; o'quvchilar bilan muntazam individual va umumiy tarzda ish olib borish; amaliy mashg'ulotlardagi tayyorgarlikni va faolligini kuchaytirish; ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari (ota-onalar, jamoatchilik va mutaxassislar) ko'pligidan unumli foydalanish; o'quvchilar ijtimoiy ko'nikmalarining shakllanish jarayonini nazorat qilish va monitoringini qilib borish va h.k.


Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirishga tayyorlash tizimini quyidagicha tavsiflaymiz: bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining malaka oshirish va innovatsion faoliyatga moyillik va qiziqishlarni shakllantiruvchi motivlarni aniqlash; bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirishga tayyorlash tizimini takomillashtirish omillarini yoritish va asoslash; bo'lajak

boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirishga tayyorlash tizimini takomillashtirish jarayonlarining istiqbolini va samaradorligini rivojlantirish yo'nalishidagi vazifalarni oldindan belgilash; bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirishga tayyorlash tizimini takomillashtirish asoslarini amalga oshirishda zarur bo'lgan vazifalarni belgilash; bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirishga tayyorlash tizimini takomillashtirish jarayonlari uzviyligini ta'minlovchi vositalarni aniqlash.

Kompetensiyaviy yondashuv nafaqat ma'lum sohadagi muayyan bilim, ko'nikma va malakalarga, qadriyatli yo'nalganlik, ijtimoiy talaba o'z-o'zini anglashga ega bo'lgan, balki bularning barchasini amaliy faoliyatda qo'llash qobiliyati va insonlarni fuqarolikka tayyorlash zaruratini ifodalaydi.


Jamiyat va uning tuzilishi to'g'risidagi bilimlar: ijtimoiy, siyosiy, huquqiy, tarixiy, madaniyatshunoslik va h.k.; iqtisodiy savodxonlik, zamonaviy iqtisodiy tizimlar amal qilish printsiplarini bilish, bozor iqtisodiyotiga asoslangan bilimlar; davlat, siyosiy tizimi, inson huquqlari, saylovlar, ijtimoiy yo'nalishlar va barcha darajalarda inson huquqlarini himoyalash mexanizmlari, ijtimoiy loyihalash asoslari to'g'risidagi bilimlar; asosiy ma'naviy kategoriyalarni bilish.

Ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish insonni jamiyatda pozitsiyasiga ega bo'lishga, demokratik davlat qurish yo'lida o'zining ishtirokini ta'minlash, ijtimoiy sherikchilik, jamoatchilik nazorati, shuningdek o'zini-o'zi nazorat qilish, jamiyat hayotida yuz berayotgan hodisa va jarayonlarga befarq bo'lmaslik, quyida keltirib o'tilgan jadvalda talaba ijtimoiy omillarining barcha asosiy sohalarini rivojlantirishida namoyon bo'ladi:



1.-rasm. Talabalar ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar

Yuqoridagi tahlillar asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish modeli takomillashtirildi:



2-rasm. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish modeli

